



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	
THE ECONOMIC CHARACTERISTICS OF NON-PERFORMING LOANS AND THEIR IMPLICATIONS FOR BANK OPERATIONAL EFFICIENCY	334
Rustamov Jonibek Ravshanbek o'g'li	
IQTISODIY TARMOQLAR RIVOJIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	341
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	346
Dilnoza Ochilova Ismoil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SINERGIK SAMARALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	351
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SINERGIK SAMARALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Jasurbek Pozilovich
Alfraganus universiteti
“Iqtisodiyot” fakulteti dekani
ORCID: 0000-0003-2651-3392
E-mail: j.qurbonov@afu.uz

Annotatsiya. Maqolada to'qimachilik sanoatidagi investitsion loyihalarning sinergik samalarini baholash metodikasini takomillashtirish yo'nalishi o'rganildi. Klasterli ishlab chiqarish sharoitida loyihalararo o'zaro ta'sirdan vujudga keladigan qo'shimcha qiymatni an'anaviy diskontlangan pul oqimi modeli to'liq qamrab olmasligi asoslab berildi. Tadqiqotda sinergik samara operatsion, bozor, moliyaviy va boshqaruv tarkibiy qismlariga ajratildi hamda real opsiyonlar nazariyasi bilan birlashtirilgan integral baholash sxemasi taklif etildi. Ishchi yondashuv O'zbekiston to'qimachilik sohasining tasdiqlangan statistik ko'rsatkichlari asosida izohlandi. Olingan natijalar investitsion qarorlarning asoslanganlik darajasini oshirishga va klaster ishtirokchilari o'rtasidagi qiymat zanjirini mustahkamlashga xizmat qildi. Taklif etilgan metodika hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Kalit so'zlar: sinergik samara, investitsion loyiha, to'qimachilik klasteri, diskontlangan pul oqimi, real opsiyonlar, integral baholash, qiymat zanjiri.

Аннотация. В статье исследованы направления совершенствования методики оценки синергетического эффекта инвестиционных проектов в текстильной промышленности. Обосновано, что традиционная модель дисконтированных денежных потоков не позволяет в полной мере учитывать дополнительную стоимость, возникающую в результате взаимодействия проектов в условиях кластерного производства. Синергетический эффект классифицирован на операционную, рыночную, финансовую и управленческую составляющие, а также предложена интегральная схема оценки, объединяющая их с теорией реальных опционов. Предложенный подход проиллюстрирован на основе официальных статистических данных текстильной отрасли Республики Узбекистан. Полученные результаты способствуют повышению обоснованности инвестиционных решений и укреплению цепочки создания стоимости между участниками кластера. Разработанная методика имеет практическое значение для совершенствования региональной промышленной политики.

Ключевые слова: синергетический эффект, инвестиционный проект, текстильный кластер, дисконтированный денежный поток, реальные опционы, интегральная оценка, цепочка создания стоимости.

Abstract. This article examines approaches to improving the methodology for evaluating the synergistic effects of investment projects in the textile industry. It demonstrates that the conventional discounted cash flow (DCF) model does not fully capture the additional value generated by interactions among projects within a cluster-based production system. The study classifies synergy into operational, market, financial, and managerial components and proposes an integrated evaluation framework combining these components with real options theory. The proposed approach is illustrated using official statistical indicators of Uzbekistan's textile industry. The findings enhance the reliability of investment decision-making and strengthen the value chain among cluster participants. The proposed methodology has practical significance for improving regional industrial policy.

Keywords: synergistic effect, investment project, textile cluster, discounted cash flow, real options, integrated evaluation, value chain.



KIRISH

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biriga aylangan va uning rivojlanish sur'ati so'nggi yillarda barqaror ijobiy yo'nalishni saqlab kelmoqda. Tarmoq raqobatbardosh eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishda, mintaqalarda yangi ish o'rinlarini tashkil etishda hamda qishloq xo'jaligi xomashyosini yuqori qo'shilgan qiymatli buyumlarga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tarmoqning amaliy ko'rsatkichlari uning investitsion jozibadorligini yaqqol namoyon etadi. 2024-yilning yanvar–iyul oylarida mamlakat qiymati qariyb 1,8 milliard AQSH dollariga teng to'qimachilik mahsulotlarini eksport qildi; bu hajm umumiy eksportning taxminan 12 foizini tashkil etib, mahsulotlar dunyoning 55 davlatiga yetkazib berildi [1]. Eksport tarkibida tayyor buyumlarning ulushi yildan yilga ortib bormoqda: 2025-yilda to'qimachilik mahsulotlari savdosi 2,6 milliard dollar darajasida shakllandi, eksport tarkibida tayyor to'qimachilik buyumlari 54,3 foizni, ip-kalava esa 27 foizni egalladi [2]. Mahsulot tarkibidagi bunday siljish tarmoqning qiymat zanjiri bo'ylab yuqoriga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish dinamikasi ham ijobiy tasvirni to'ldiradi. To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 10,7 foizga o'sdi, holbuki 2023-yilda bu ko'rsatkich 7,9 foizni tashkil etgan edi; o'sha yili asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida markazlashtirilmagan, ya'ni xususiy va xorijiy manbalarning ulushi 89,5 foizga yetdi [3]. Investitsiya oqimining bunday tuzilishi tarmoqda loyihaviy qarorlarning sifati va asoslanganligiga bo'lgan talabni kuchaytiradi, chunki resurslarni taqsimlash tobora ko'proq bozor mezonlariga tayanadi.

Davlat siyosati investitsion jarayonlar uchun mustahkam zamin yaratmoqda. O'rta muddatli investitsiya dasturi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, modernizatsiya hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni nazarda tutadi [4]. Tarmoqning tashkiliy negizi sifatida 2017-yilda joriy etilgan paxta-to'qimachilik klasterlari xizmat qiladi: 2018-yildayoq 15 ta to'qimachilik klasteri 4 mingdan ortiq fermer xo'jaligi bilan 160 ming gektardan ziyod maydonni qamrab oluvchi shartnomalar tuzgan edi [5]. Klaster modeli xomashyo yetishtirishdan to' tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni yagona tashkiliy makonda birlashtiradi va shu tariqa loyihalararo bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Tarmoqning strategik maqsadlari uning o'sish salohiyatini yanada oydinlashtiradi: eksport hajmini 2026-yilga qadar 6,5 milliard dollarga yetkazish ko'zlanmoqda [6]. Bunday marralarga erishish ko'p sonli o'zaro bog'liq investitsion loyihalarni — yigiruv, to'quv, bo'yash-pardozlash va tikuv-trikotaj bosqichlarini — muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishni taqozo etadi.

Aynan shu nuqtada amaliy muammo yuzaga keladi. Klaster sharoitida har bir loyiha yakka holda emas, balki qo'shni bo'g'inlar bilan uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi: bir korxonaning yigirilgan ipi qo'shni korxona uchun xomashyoga, umumiy logistika va energetika infratuzilmasi esa bir nechta loyiha uchun birgalikdagi resursga aylanadi. An'anaviy investitsion baholashda har bir loyiha alohida olib qaraladi va uning sof joriy qiymati mustaqil ravishda hisoblanadi. Bunday yondashuv loyihalarning birgalikdagi faoliyatidan tug'iladigan qo'shimcha qiymatni — sinergik samarani — e'tibordan chetda qoldiradi va investitsiya salohiyatini past baholashga olib keladi.

Maqolaning maqsadi to'qimachilik sanoatidagi investitsion loyihalarning sinergik samaralarini baholash metodikasini takomillashtirishdan iborat. Vazifa esa sinergik samaraning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni mavjud baholash apparati bilan uyg'unlashtirgan integral sxemani ishlab chiqish hamda uni tarmoqning amaliy konteksti bilan bog'lashdan iborat.

Taklif etilayotgan yondashuv investitsion qarorlarni iqtisodiy jihatdan to'liqroq asoslashga va klasterning umumiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinergiya tushunchasining iqtisodiy mazmuni I. Ansoff asarlarida tizimli shaklga keltirilgan. Ansoff korporativ strategiya doirasida sinergiyani investitsiyalardan olinadigan daromad o'sishi orqali izohlagan va uni to'rt asosiy turga — sotuv, operatsion, investitsion hamda boshqaruv sinergiyalariga ajratgan [7]. Keyingi tadqiqotlar ushbu tasnifni boyitib, bozor kuchi, operatsion, boshqaruv va moliyaviy sinergiya kabi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatdi hamda sinergiyani korxonalararo tarmoq munosabatlari natijasi sifatida talqin qildi.

Sinergik samarani miqdoriy baholash masalasida adabiyotda yagona matematik tarzda ifodalanadigan asos shakllangan. Sinergiya birlashgan tuzilmaning qiymati uning tarkibiy qismlari mustaqil qiymatlari yig'indisidan ortiq bo'lgan holatda namoyon bo'ladigan iqtisodiy ortiqcha qiymat sifatida ta'riflanadi; mazkur ortiqcha qiymat foydaning oshishi, xarajatlarning kamayishi va zarur investitsiya resurslariga ehtiyojning qisqarishi orqali yuzaga keladi [8]. Ushbu ta'rif sinergiyani o'lchash uchun aniq mantiqiy negiz beradi va uni baholash modellariiga kiritish imkonini yaratadi.



Sinergiyaning fazoviy va tarmoq jihatlarini klaster nazariyasi orqali ochib beriladi. M. Porter klasterini geografik jihatdan yaqin joylashgan, o'zaro bog'liq korxonalar va tegishli muassasalarning birlashmasi sifatida ta'riflab, klasterli hamkorlik korxonalar va tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatgan [9]. Klaster ichidagi yaqinlik samaralarining ildizi esa A. Marshall tomonidan tavsiflangan aglomeratsiya iqtisodiyotiga borib taqaladi: bozor va xarajat bo'yicha fazoviy ustunliklar, ixtisoslashgan mehnat bozorining shakllanishi hamda bilimlarning mahalliy aylanishi korxonalar uchun qo'shimcha samaradorlik manbalarini yaratadi [10].

Sanoat aglomeratsiyasining ijobiy ta'sirini empirik tasdiqlovchi zamonaviy tadqiqotlar ham mavjud. Hududiy ma'lumotlar asosida o'tkazilgan keng ko'lamli tahlil sinergik aglomeratsiya yagona tarmoq doirasidagi oddiy to'planishga nisbatan kuchliroq ijobiy ta'sir ko'rsatishini va ijobiy fazoviy tarqalish samaralarini keltirib chiqarishini aniqladi [11]. Bunday natijalar klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir yakka korxona darajasidan yuqori turuvchi qo'shimcha qiymat manbai ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy moliya sohasida sinergiyani baholash, asosan, qo'shilish va yutib olish bitimlari kontekstida rivojlangan. Tegishli ishlarnalarda sinergiya qiymati diskont stavkasi va daromad o'sishi kabi asosiy parametrlarga nisbatan baholanadi, baholashda esa sinergiyani amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha, ko'pincha yashirin investitsion xarajatlarni hisobga olish zarurligi alohida ta'kidlanadi [12]. Bu yondashuv sinergik samarani real iqtisodiy natijaga aylantirish uchun zarur sarmoyalarni e'tibordan qochirmaslik lozimligini eslatadi.

Mavjud adabiyotning ko'rib chiqilishi muhim bo'shliqni ochib beradi. Sinergiya nazariyasi va klaster nazariyasi alohida-alohida yetarlicha ishlab chiqilgan, biroq ularni yagona hududiy sanoat klasterining investitsion loyihalariga moslashtirilgan baholash metodikasiga birlashtiruvchi izchil sxema kam uchraydi. To'qimachilik tarmog'i misolida bunday metodikaning ishlab chiqilishi nazariy bilimni amaliy investitsion qarorlar bilan bog'lash imkonini beradi va keyingi bo'limlar uchun konseptual asosni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilayotgan metodika uch tarkibiy blokni izchil ravishda birlashtiruvchi integral baholash sxemasiga asoslanadi. Birinchi blok loyihalarning mustaqil qiymatini, ikkinchi blok ular o'rtasidagi sinergik qo'shimcha qiymatni, uchinchi blok esa investitsion qarorning moslashuvchanlik qiymatini aks ettiradi. Sxemaning umumiy mantig'i 1-rasmda keltirilgan.

Birinchi blok an'anaviy diskontlangan pul oqimi apparati zaminida quriladi. Har bir loyiha uchun sof joriy qiymat (NPV) uning kelajakdagi pul oqimlarini joriy paytga keltirish orqali aniqlanadi. Diskontlangan pul oqimi usuli investitsion loyihalar bahosida bazaviy mezon bo'lib xizmat qiladi, biroq u loyihani «hozir yoki hech qachon» mantig'ida, qat'iy belgilangan ssenariy doirasida baholaydi va boshqaruv qarorlarining keyingi moslashuvchanligini hisobga olmaydi [13]. Shu sababga ko'ra birinchi blok zarur, ammo yetarli emas.

Ikkinchi blok metodikaning asosiy yangiligini tashkil etadi. Bunda sinergik samara yagona ko'rsatkich sifatida emas, balki to'rt tarkibiy qismga ajratilgan holda baholanadi. Operatsion sinergiya umumiy infratuzilma, logistika va energetik resurslardan birgalikda foydalanish hisobiga birlik xarajatlarning kamayishini ifodalaydi. Bozor sinergiyasi klaster ishtirokchilarining birgalikdagi savdo tarmog'i va brendi orqali eksport hajmi hamda bozor ulushining kengayishini aks ettiradi. Moliyaviy sinergiya birlashgan loyihalar portfelining tavakkalchiligi pasayishi natijasida kapital narxining arzonlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Boshqaruv sinergiyasi esa malakali kadrlar, texnologik kompetensiyalar va boshqaruv tajribasining ishtirokchilar o'rtasida almashinuvi tufayli yuzaga keladi.

Sinergik qo'shimcha qiymatning miqdoriy ifodasi adabiyotda qabul qilingan klassik ta'rifga tayanadi: u birlashgan tizim qiymatining tarkibiy qismlar mustaqil qiymatlari yig'indisidan oshig'i sifatida o'lchanadi [8]. Sinergiyaning har bir tarkibiy qismi tegishli pul oqimi ko'rinishida ifodalanib, umumiy diskont stavkasida joriy qiymatga keltiriladi va shu tariqa baholashning yagona o'lchov birligiga moslashtiriladi. Sinergik samarani amalga oshirish uchun talab etiladigan qo'shimcha sarmoyalar esa baholashdan chegirib tashlanadi, bu real iqtisodiy natijani ortiqcha baholashning oldini oladi [12].

Uchinchi blok real opsionlar nazariyasiga asoslanadi va investitsion qarorga xos moslashuvchanlikni qiymatga aylantiradi. Real opsionlar yondashuvi loyihani kechiktirish, kengaytirish yoki to'xtatish imkoniyatlarini moliyaviy opsionlar narxlash nazariyasi orqali baholash imkonini beradi hamda noaniqlik sharoitida an'anaviy diskontlangan pul oqimi usulini muhim tarzda to'ldiradi [14]. Bunday moslashuvchanlik klaster bosqichlarini ketma-ket ishga tushirish, bozor sharoitiga qarab quvvatni kengaytirish kabi qarorlarda strategik qiymat hosil qiladi.

Baholashning yakuniy bosqichida miqdoriy va sifat mezonlarini birlashtirish maqsadga muvofiq. Investitsion loyihalarni baholashda real opsionlar usulini ko'p mezonli qaror qabul qilish apparati bilan uyg'unlashtirgan modellar miqdoriy moslashuvchanlik bahosini sifat omillari bilan to'ldirib, qarorning asoslanganligini oshirishini ko'rsatadi [15]. Mazkur tamoyilga rioya etgan holda metodika integral qiymatni quyidagi konseptual munosabat




orqali ifodalaydi: integral qiymat loyihalarning mustaqil sof joriy qiymatlari yig'indisi, sinergiya tarkibiy qismlarining joriy qiymati va real opsiyonlar qiymatining birikmasidan tashkil topadi.

$$V(\text{integral}) = \sum NPV_i + PV(\text{sinergiya}) + ROV$$

Metodikaning empirik bazasi sifatida faqat ochiq va tasdiqlangan manbalardan olingan ko'rsatkichlar qabul qilinadi. Tarmoq darajasidagi ma'lumotlar rasmiy statistika va sohaviy hisobotlardan, institutsional shart-sharoitlar esa me'yoriy hujjatlardan olinadi. Bunday yondashuv natijalarning ishonchligini ta'minlaydi va baholashni asossiz taxminlardan xoli qiladi (1-rasm).

To'qimachilik loyihalarining sinergik samarasini integral baholash modeli



1-rasm. To'qimachilik loyihalarining sinergik samarasini integral baholash modeli'

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan metodikaning amaliy salohiyatini to'qimachilik tarmog'ining tasdiqlangan ko'rsatkichlari kontekstida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. 1-jadvalda tarmoqning sinergik baholash uchun ahamiyatli bo'lgan asosiy ko'rsatkichlari ochiq manbalar ko'rsatilgan holda jamlangan (1-jadval).

1-jadval
To'qimachilik sanoatining sinergik baholashda asosiy ko'rsatkichlar²

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
To'qimachilik mahsulotlari eksporti 2024-yil yanvar-iyul oylari , mlrd AQSH dollar	1,8	[1]
Umumiy eksportdagi ulush 2024-yil yanvar-iyul oylari, foizda	12	[1]
To'qimachilik ishlab chiqarishining o'sishi 2024-yil, foizda	10,7	[3]
Markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi 2024-yil, foizda	89,5	[3]
To'qimachilik mahsulotlari savdosi 2025-yil, mlrd AQSH dollar	2,6	[2]
Tayyor mahsulot ulushi eksport tarkibida 2025-yil, foizda	54,3	[2]
Eksport bo'yicha strategik maqsad 2026-yil mlrd AQSH dollar	6,5	[6]

1-jadval ko'rsatkichlari taklif etilgan integral sxemaning har bir blokini real iqtisodiy mazmun bilan to'ldiradi. Eksport tarkibida tayyor mahsulot ulushining 54,3 foizga ko'tarilishi [2] bozor sinergiyasining amaldagi ko'rinishini

1 Muallif ishlanmasi

2 Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan



namoyon etadi: klaster bo'g'inlarining qiymat zanjiri bo'ylab yuqoriga siljishi yakka korxonalar yig'indisi bera olmaydigan qo'shimcha eksport qiymatini hosil qiladi. Ishlab chiqarishning 10,7 foizlik o'sishi [3] esa operatsion blokning samaradorlik zaxiralari mavjudligini ko'rsatadi.

Klaster tuzilmasi sinergiya tarkibiy qismlarini real shaklga keltiruvchi tashkiliy mexanizm vazifasini bajaradi. 15 ta klasterning 160 ming gektardan ziyod maydonni qamrab oluvchi shartnomalar orqali fermer xo'jaliklari bilan birlashtirilishi [5] xomashyo ta'minotidan tortib pardoqlashgacha bo'lgan bosqichlarni yagona zanjirga jamlaydi va operatsion hamda boshqaruv sinergiyasi uchun zamin hozirlaydi. Markazlashtirilmagan investitsiyalarning 89,5 foizlik ustun ulushi [3] moliyaviy sinergiya blokining ahamiyatini oshiradi, chunki xususiy kapital narxining birlashgan portfel hisobiga arzonlashuvi to'g'ridan to'g'ri investitsion samaradorlikka ta'sir qiladi.

Strategik marra ham metodikaning amaliy zaruratini tasdiqlaydi. Eksportni 2026-yilga qadar 6,5 milliard dollarga yetkazish vazifasi [6] ko'p sonli o'zaro bog'liq loyihalarning muvofiqlashtirilgan ishga tushirilishini talab etadi. Real opsiya blok aynan shu jarayonda qimmatga ega bo'ladi: bosqichlarni ketma-ket joriy etish, bozor talabiga muvofiq quvvatlarni kengaytirish yoki yangi yo'nalishlarga o'tish imkoniyati an'anaviy baholash chetda qoldiradigan strategik qiymatni saqlab qoladi [14].

Olingan tahlil natijalari uchta yaxlit xulosani shakllantiradi. Birinchidan, to'qimachilik klasterining institutsional tuzilishi sinergik samaraning to'rt tarkibiy qismi — operatsion, bozor, moliyaviy va boshqaruv — uchun ham real, ham o'lganadigan zamin yaratadi. Ikkinchidan, tarmoqning tasdiqlangan ko'rsatkichlari taklif etilgan integral sxemaning amaliy qo'llanilishiga yetarli ma'lumot bazasini taqdim etadi. Uchinchidan, sinergik samarani alohida bloklarga ajratib baholash investitsion qarorning asoslanganligini oshiradi va resurslarni yanada oqilona taqsimlash imkonini beradi. Bu natijalar metodikaning nazariy izchilligini amaliy ahamiyat bilan uyg'unlashtirib, uning hududiy sanoat siyosatidagi o'rnini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ish to'qimachilik sanoatidagi investitsion loyihalarning sinergik samaralarini baholash metodikasini takomillashtirishga qaratildi va bir qator izchil xulosalarga olib keldi. An'anaviy diskontlangan pul oqimi modeli loyihalarni alohida baholaganida ularning klaster doirasidagi birgalikdagi faoliyatidan tug'iladigan qo'shimcha qiymatni qamrab ololmaydi; ushbu bo'shliq sinergik samarani alohida tahlil obyekti sifatida ajratishni taqozo etadi.

Taklif etilgan integral sxema uch blokni — loyihalarning mustaqil qiymati, to'rt tarkibiy qismga ajratilgan sinergik qo'shimcha qiymat hamda real opsiya orqali ifodalangan moslashuvchanlik qiymatini — yagona baholash mantig'ida birlashtiradi. Bunday tuzilma sinergiyani amalga oshirish uchun zarur qo'shimcha sarmoyalarni hisobga oladi va shu bilan baholash natijalarini realistik darajada saqlaydi. Metodikaning O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ining tasdiqlangan ko'rsatkichlari bilan bog'lanishi uning amaliy qo'llanilishini ko'rsatdi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

birinchidan, klaster doirasidagi investitsion loyihalarni baholashda sinergik samarani mustaqil bosqich sifatida kiritish va uni operatsion, bozor, moliyaviy hamda boshqaruv tarkibiy qismlariga ajratib hisoblash;

ikkinchidan, loyihalarni bosqichma-bosqich ishga tushirish va quvvatlarni kengaytirish imkoniyatlarini real opsiya yondashuvi orqali baholab, investitsion qarorlarda moslashuvchanlik qiymatini hisobga olish;

uchinchidan, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi umumiy infratuzilma, logistika va kadrlar almashinuvini rag'batlantirib, operatsion va boshqaruv sinergiyasining moddiy zaminini mustahkamlash;

to'rtinchidan, baholash uchun faqat ochiq va tasdiqlangan statistik manbalardan foydalanish hamda ma'lumotlar bazasini muntazam yangilab borish.

Keltirilgan xulosa va takliflar to'qimachilik tarmog'ining barqaror o'sishini ta'minlashga, investitsion resurslarni yanada samarali yo'naltirishga va klasterning umumiy qiymat zanjirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan metodika kelgusi tadqiqotlarda boshqa qayta ishlash tarmoqlariga moslashtirilishi mumkin va bunday kengaytirish hududiy sanoat siyosatini ilmiy asoslangan baholash vositalari bilan boyitishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston 7 oyda 55 ta davlatga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56469-o-zbekiston-7-oyda-55-ta-davlatga-to-qimachilik-mahsulotlarini-eksport-qilgan>
2. 2025-yilda O'zbekiston tashqi savdosi qanday o'zgardi? *Gazeta.uz*. 2026. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/trade-2025/>



3. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar bo'ldi. *Uz24.uz*. 2025. URL: <https://uz24.uz/uz/articles/iqtisodiyot-25-1-23>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida **PQ-459-son qarori**. <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>
5. *Investment Potential*. Uzbekistan Textile and Garment Industry Association (Uztextileprom). URL: <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential/>
6. *Uzbekistan Eyes \$6.5bn Textile, Apparel Exports by 2026*. *Just-style*. 2024. URL: <https://www.just-style.com/news/uzbekistan-eyes-tripling-of-textile-apparel-exports-to-6-5bn-by-2026/>
7. *Exploring and Extending the Synergy Concept: A Study of Three Acquisitions*. *Journal of Business & Industrial Marketing*. Emerald Publishing, 2021. URL: <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/jbim-09-2020-0420/full/html>
8. *Laws of Synergy in the Economy, Business and Management*. *European Scientific Journal (ESJ)*. URL: <https://ejournal.org/index.php/esj/article/view/6444/6184>
9. *The Role of Industrial Clustering in Economic Development*. KDI School of Public Policy and Management. URL: [https://archives.kdischool.ac.kr/bitstream/11125/30227/1/\(The\)%20Role%20of%20industrial%20clustering%20in%20economic%20development.pdf](https://archives.kdischool.ac.kr/bitstream/11125/30227/1/(The)%20Role%20of%20industrial%20clustering%20in%20economic%20development.pdf)
10. *What Are Industrial Clusters and Economies of Agglomeration?* City-REDI, University of Birmingham. URL: <https://blog.bham.ac.uk/cityredi/what-are-industrial-clusters-and-economies-of-agglomeration/>
11. *The Impact of Industrial Synergistic Agglomeration on Residents' Health Levels*. *National Library of Medicine (PMC)*. 2025. URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC11740386/>
12. Bousquet, J. *Synergies Valuation in M&A: Practical Application in Financial Institutions*. URL: http://www.vernimmen.com/ftp/Memoire_Finance_Julien_BOUSQUET_Synergie_Valuation_in_M_A.pdf
13. *Real Options and Discounted Cash Flow Analysis to Assess Strategic Investment Projects*. ResearchGate. URL: https://www.researchgate.net/publication/316067321_Real_Options_and_Discounted_Cash_Flow_Analysis_to_Assess_Strategic_Investment_Projects
14. Vintila, N. *Real Options in Capital Budgeting*. *Theoretical and Applied Economics*. DOAJ. URL: <https://doaj.org/article/68dbbb6b395b446cb2185a6be3b26134>
15. *Evaluating the Investment Projects of Spinal Medical Device Firms Using the Real Option and DANP-mV Based MCDM Methods*. *National Library of Medicine (PMC)*. URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7246546/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>